



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
Allamurodov Elyor Tursun ugli	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
Dilrabo Jumanova	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
Saotmurotova Zebo Yuldash qizi	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	

MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Nazarova Dildora Asatovna

Oriental universiteti "uzluksiz ta'lim pedagogikasi" kafedrası professori,
pedagogika fanlari nomzodi

Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi

Oriental universiteti pedagogika fakulteti maxsus pedagogika yo'nalishi
401-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Salomatlik savodxonligi va sog'lom turmush tarzi madaniyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida yoritilgan. Bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning asosiy komponentlari, mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillar hamda inklyuziv yondashuvning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, normativ-huquqiy asoslar va xalqaro tashkilotlar tavsiyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sog'lom turmush tarzi madaniyati, salomatlik savodxonligi, inklyuziv ta'lim, bolalar salomatligi, jismoniy faollik, sog'lom ovqatlanish, gigiyena, profilaktika.

Abstract: The article analyzes the theoretical foundations of developing a healthy lifestyle culture among preschool and school-age children. Based on the scientific views of local and foreign researchers, the relationship between health literacy and healthy lifestyle culture is revealed. The main components of developing a healthy lifestyle culture, the factors influencing this process, and the importance of an inclusive approach are discussed. In addition, the reforms, regulatory framework, and recommendations of international organizations implemented in this field in Uzbekistan are analyzed.

Key words: healthy lifestyle culture, health literacy, inclusive education, children's health, physical activity, healthy nutrition, hygiene, prevention.

Аннотация: В статье проанализированы теоретические основы формирования культуры здорового образа жизни у детей дошкольного и школьного возраста. На основе научных взглядов отечественных и зарубежных исследователей раскрыта взаимосвязь между грамотностью в вопросах здоровья и культурой здорового образа жизни. Рассмотрены основные компоненты формирования культуры здорового образа жизни, факторы, влияющие на данный процесс, а также значение инклюзивного подхода. Кроме того, проанализированы реформы, нормативно-правовые основы и рекомендации международных организаций, реализуемые в данном направлении в Узбекистане.

Ключевые слова: культура здорового образа жизни, грамотность в вопросах здоровья, инклюзивное образование, здоровье детей, физическая активность, здоровое питание, гигиена, профилактика.

KIRISH

Inson salomatligi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jahonda kechayotgan global o'zgarishlar, urbanizatsiya jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va turmush tarzining o'zgarishi bolalar salomatligiga yangi xavf omillarini yuzaga keltirmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yuqumsiz kasalliklarning asosiy xavf omillari – noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetarli emasligi, zararli odatlar va stress holatlari bolalik davrida shakllanadi (World Health Organization, 2021). Shu munosabat bilan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish masalasi nafaqat sog'liqni saqlash, balki pedagogika, psixologiya va ijtimoiy himoya sohalari oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylanmoqda.



Sog'lom turmush tarzi madaniyati shaxsning o'z salomatligiga ongli munosabati, sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, psixologik barqarorlik va profilaktik xulq-atvor kabi tarkibiy qismlarni qamrab oluvchi integrativ sifat hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda bolalar salomatligini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish hamda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni hamda "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son¹ Qonunida bolalarning sog'lom va xavfsiz muhitda ta'lim olish huquqlari mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son² qarori bilan 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son³ Farmoni bilan aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish, ommaviy sportni rivojlantirish hamda jismoniy faollikni oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilandi. UNICEF tashkiloti tomonidan tayyorlangan maktab ovqatlanishi muhiti bo'yicha hisobotda ta'lim muassasalarida sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash, sog'lom ovqatlanishni tashkil etish va bolalarning jismoniy faolligini qo'llab-quvvatlash muhimligi qayd etilgan (UNICEF Uzbekistan, 2024). Shu bilan birga, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamda UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Salomatlikni targ'ib qiluvchi maktablar" konsepsiyasini milliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy pedagogik merosimizda ham sog'lom avlod tarbiyasi masalasi muhim o'rin tutadi. Abdulla Avloniy: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", deb ta'kidlaydi (Avloniy, 1992, 13-bet). Mutafakkirning "Badan tarbiyasi fikr tarbiyasi uchun zamindir" degan fikri (Avloniy, 1992, 24-bet) jismoniy salomatlik va intellektual rivojlanishning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning muhim sharti sifatida salomatlik savodxonligi tushunchasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Don Nutbeam salomatlik savodxonligini insonning salomatlikka oid axborotlarni olish, tushunish va ulardan salomatlikni saqlash hamda mustahkamlash maqsadida foydalanish imkonini beruvchi kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalar majmuasi sifatida ta'riflaydi (Nutbeam, 2000). Leena Paakkari va Olli Paakkari salomatlik savodxonligini maktab ta'limining muhim natijasi sifatida baholab, uning tarkibiga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, o'zini anglash va fuqarolik mas'uliyatini kiritadilar.

Mualliflar ta'kidlashicha: "Salomatlik savodxonligi o'z ichiga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, o'zini anglash hamda fuqarolik mas'uliyati kabi tarkibiy qismlarni qamrab oladi" (Paakkari, Leena & Paakkari, Olli, 2012). Mazkur yondashuv sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, bolalarning sog'liq haqidagi bilimlarni o'zlashtirishi, ularni amalda qo'llashi va sog'lom muhit yaratishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Maqolaning maqsadi maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish, mazkur jarayonda salomatlik savodxonligining o'rnini aniqlash hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritishdan iborat deb belgilandi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy manbalarni tahlil qilish va normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Tahlil obyektini sifatida sog'lom turmush tarzi madaniyati, salomatlik savodxonligi va inklyuziv ta'lim masalalariga bag'ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar, World Health Organization, UNESCO va UNICEF hisobotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining mazkur sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlari o'rganildi. Salomatlik savodxonligi va sog'lom turmush tarzi madaniyatining o'zaro bog'liqligi. Sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish masalasi so'nggi yillarda salomatlik savodxonligi konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda. Don Nutbeam salomatlik savodxonligining funksional, interaktiv va tanqidiy darajalarini ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, funksional daraja salomatlik haqidagi asosiy ma'lumotlarni tushunishni, interaktiv daraja mazkur bilimlarni kundalik hayotda qo'llashni, tanqidiy daraja esa axborotlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilishni nazarda tutadi (Nutbeam, 2000). Paakkari, Leena va Paakkari, Olli tomonidan taklif etilgan model mazkur yondashuvni yanada kengaytiradi. Olimlarning fikricha, salomatlik savodxonligi nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, o'zini anglash va fuqarolik mas'uliyatidan tashkil topadi (Paakkari & Paakkari, 2012).

1 <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 <https://lex.uz/docs/-5044711>

3 <https://lex.uz/docs/-5077667>

Ushbu tarkibiy unsurlar sog'lom turmush tarzi madaniyatining mazmuni bilan hamohang sanaladi. Jumladan:


- nazariy bilimlar bolalarda sog'lom ovqatlanish, shaxsiy gigiyena, jismoniy faollik va kasalliklar profilaktikasi haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi;
- amaliy ko'nikmalar mazkur bilimlarni kundalik hayotda qo'llash imkonini beradi;
- tanqidiy fikrlash ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'idagi salomatlikka oid ma'lumotlarni baholashga yordam beradi;
- o'zini anglash shaxsiy ehtiyojlar va imkoniyatlarni to'g'ri baholashni ta'minlaydi;
- fuqarolik mas'uliyati esa oila va jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, salomatlik savodxonligini rivojlantirish bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi.

Urie Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko'ra, bolaning rivojlanishi oila, ta'lim muassasasi va jamiyatning o'zaro ta'siri natijasida amalga oshadi (Bronfenbrenner, 1979). Shu nuqta nazardan, sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish jarayonida "oila – ta'lim muassasasi – jamiyat" hamkorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Rossiyalik olim V.R. Kuchma bolalar salomatligini muhofaza qilishda ta'lim muassasalaridagi sanitariya-gigiyena muhiti va jismoniy faollikni tashkil etish muhimligini ta'kidlaydi (Kuchma, 2020).

N.K. Smirnov esa ta'lim jarayonida sog'liqni saqlash texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning jismoniy va psixologik salomatligini muhofaza qilishning muhim sharti ekanligini qayd etadi (Smirnov, 2002). O'rganilgan manbalar tahlili asosida biz mazkur jarayonga ta'sir etuvchi omillarni bir nechta guruhlarga ajratdik (1-rasm).



1-rasm: Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish omillari

TAHLIL VA NATIJALAR

Inklyuziv ta'lim sharoitida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish. Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan tizim bo'lib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. R. Shomahmudova inklyuziv ta'lim muhitini tashkil



etishda bolaning individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi (R. Shomahmudova, 2011). Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlaridan teng foydalanish huquqi kafolatlangan (United Nations, 2006). Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar har bir bolaning individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Bunday yondashuv bolalarning salomatligini mustahkamlash, ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ushbu omillardan kelib chiqqan holda inklyuziv ta'lim sharoitida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- ta'lim materiallarini turli ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalarga moslashtirish;
- yordamchi texnologiyalardan foydalanish;
- pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- ota-onalar bilan hamkorlik qilish;
- jismoniy muhitning qulayligini ta'minlash.

O'rganilgan ilmiy, nazariy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ta'lim dasturlariga salomatlik savodxonligi va sog'lom turmush tarzi madaniyatiga oid mavzularni integratsiya qilish;
- pedagoglarning mazkur sohadagi kompetensiyalarini rivojlantirish;
- ota-onalar uchun axborot-ma'rifiy tadbirlarni muntazam tashkil etish;
- ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollik uchun qulay muhit yaratish;
- ta'lim dasturlariga bolalarning raqamli texnologiyalardan xavfsiz, oqilona va mas'uliyatli foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan mavzularni kiritish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim materiallarini ishlab chiqish;
- sog'lom turmush tarzi madaniyatining shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish.

XULOSA

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar materiallari va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishda salomatlik savodxonligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tahlil qilingan manbalarga ko'ra, sog'lom turmush tarzi madaniyati nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, o'zini anglash va fuqarolik mas'uliyati kabi o'zaro bog'liq komponentlar asosida shakllanadi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda mazkur sifatlarni rivojlantirishda oila, ta'lim muassasasi va jamiyatning hamkorligi muhim o'rin tutadi. Oila sog'lom odatlarni shakllantirishning dastlabki muhitini yaratsa, ta'lim muassasalari salomatlik savodxonligini rivojlantirish orqali bolalarning sog'lom turmush tarziga oid bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, inklyuziv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning salomatligini muhofaza qilish va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etishga qaratilgan davlat dasturlari mazkur sohani rivojlantirish uchun zarur huquqiy va institutsional asoslarni yaratmoqda. Kelgusida ta'lim dasturlariga salomatlik savodxonligi elementlarini kengroq integratsiya qilish, pedagoglar va ota-onalarning bu boradagi kompetensiyalarini rivojlantirish hamda xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori. – Toshkent, 2020-yil 13-oktabr. <https://lex.uz/docs/-5044711>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son Farmoni. – Toshkent, 2020-yil 30-oktabr. <https://lex.uz/docs/-5077667>
4. World Health Organization. Making Every School a Health-Promoting School: Global Standards and Indicators. – Geneva: World Health Organization, 2021.
5. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. – New York: United Nations, 2006.
6. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. – Paris: UNESCO, 2017.
7. UNICEF Uzbekistan. Assessment of School Nutrition Environment and Policies in Uzbekistan. – Tashkent: UNICEF Uzbekistan, 2024.
8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
9. Shomahmudova Risqiniso. Maxsus va inklyuziv ta'lim: xalqaro va milliy tajribalar (monografiya). – Toshkent: Chashma Print, 2011. – 312 b.
10. Bronfenbrenner, Urie. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
11. Nutbeam, Don. Health literacy as a public health goal: A challenge for contemporary health education and communication strategies into the 21st century // Health Promotion International. – 2000. – Vol. 15, No. 3. – P. 259-267. – DOI: 10.1093/heapro/15.3.259.
12. Paakkari, Leena & Paakkari, Olli. Health literacy as a learning outcome in schools // Health Education. – 2012. – Vol. 112, No. 2. – P. 133-152. – DOI: 10.1108/09654281211203411.
13. Kickbusch, Ilona, Pelikan, Jürgen M., Apfel, Franklin & Tsouros, Agis D. Health Literacy: The Solid Facts. – Copenhagen: World Health Organization Regional Office for Europe, 2013.
14. Кучма В.Р. Гигиена детей и подростков. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2020. – 528 с.
15. Смирнов Н.К. Здоровьесберегающие образовательные технологии в современной школе. – Москва: АПК и ПРО, 2002. – 121 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.